

CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib, trln. so'm




Yirik
korxonalar




Kichik biznes va xususiy
tadbirkorlik subyektlari

O'sish sur'atlari, foizda

Yirik
korxonalar
Kichik biznes
va xususiy
tadbirkorlik
subyektlari
Uyushmagan
savdo




Tarkibiy qism, foizda



Dastlabki ma'lumotlar

Viloyat bo'yicha 2020-yilning yanvar - oktabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **11 740,8** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **0,6** % ga kamaydi. Shu jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi **1 355,5** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **93,2** %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **10 385,3** mlrd. so'mni (**0,2** % ga o'sdi), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1 046,5** mlrd. so'mni (**23,3** % ga kamaydi) tashkil etdi.

Uyushmagan savdo, mlrd. so'm





HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI, mlrd. so'm

ENG YUQORI ULUSH

Andijon sh.
3 669,1

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Andijon shahri **31,3 %** ulush bilan **3 669,1** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Shahrixon
1 459,6

Asaka
1 162,5

Qo'rg'ontepa
804,2

Andijon
764,9

Xo'jaobod
700,3

Baliqchi
557,4

Paxtaobod
447,5

Marhamat
432,7

Oltinko'l
405,8

Izboskan
338,3

Jalaquduq
294,0

Buloqboshi
272,3

Bo'ston
220,3

Xonobod
123,6

Ulug'nor
88,3

UMUMIY MA'LUMOT

Viloyat bo'yicha 2020-yilning yanvar-oktabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **11 740,8** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yilning yanvar - oktabr oylariga nisbatan **99,4 %** ni tashkil etdi.

Viloyatimiz chakana savdo tovar aylanmasida Asaka, Ulug'nor, Shahrixon,, Qo'rg'ontepa va Baliqchi tumanlaridan tashqari barcha shahar va tumanlarda o'sish sur'atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida **88,5 %** kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga va **11,5 %** yirik korxonalar hissasiga to'g'ri keldi.

ENG QUIYI ULUSH

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni Ulug'nor tumani **0,8 %** ulush bilan **88,3** mlrd. so'mni tashkil etdi.




CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

	Jami, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxona- lar, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, foizda
Andijon viloyati	11 740,8	99,4	1 355,5	93,2	10 385,3	100,2
Andijon sh.	3 669,1	100,3	1 029,7	87,6	2 639,4	106,3
Xonobod sh.	123,6	101,5	17,4	2,5 m.	106,2	91,5
tumanlar:						
Oltinko'l	405,8	100,3	19,7	104,0	386,1	100,1
Andijon	764,9	107,3	89,5	2,4 m.	675,4	96,1
Baliqchi	557,4	99,3	31,9	199,8	525,5	96,3
Bo'ston	220,3	104,1	15,0	114,6	205,3	103,5
Buloqboshi	272,3	100,4	9,2	154,7	263,1	99,2
Jalaquduq	294,0	103,2	9,2	144,1	284,8	102,2
Izboskan	338,3	103,6	10,3	147,2	328,0	103,3
Ulug'nor	88,3	94,6	1,7	5,9 m.	86,6	95,5
Qo'rg'ontepa	804,2	98,9	15,2	142,0	789,0	99,8
Asaka	1 162,5	90,6	47,9	49,8	1 114,6	94,8
Marhamat	432,7	104,4	11,7	147,0	421,0	101,1
Shahrixon	1 459,6	95,7	22,2	62,0	1 437,4	97,1
Paxtaobod	447,5	100,3	15,3	137,5	432,2	99,4
Xo'jaobod	700,3	101,6	9,6	170,2	690,7	99,9


2019-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan viloyatning Asaka (90,6 %), Ulug'nor (94,6 %), Shahrixon (95,7 %), Qo'rg'ontepa (98,9 %) va Baliqchi (99,3 %) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining kamayish sur'atlari kuzatilib, Andijon shahri (100,3 %), Xonobod shahri (101,5 %) va Bo'ston (104,1 %), Marhamat (104,4 %), Andijon (107,3 %) va boshqa tumanlarida o'sish sur'atlari qayd etildi.

CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Yirik korxonalar




Eng yuqori ulushga
ega hududlar, foizda




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2019-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **6,8 %** ga kamaydi va **1 355,5** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **11,5 %** ulushiga to'g'ri keladi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari




Eng yuqori ulushga
ega hududlar, foizda



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **10 385,3** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **0,2 %** ga o'sdi. Viloyat bo'yicha ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **88,5 %** ni tashkil etdi.

CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, foizda

Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Xo'jaobod (98,6 %), Shahrixon (98,5 %), Ulug'nor (98,1 %), Qo'rg'ontepa (98,1 %), Marhamat (97,3 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi 11,5 % ni tashkil etib, eng katta ulush Andijon shahrida (28,1 %), Xonobod shahrida (14,1 %), Andijon (11,7 %) va Bo'ston (6,8 %) tumanlarida kuzatildi.



AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

2020-yilning yanvar-oktabr oylari holatiga ko'ra o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **3 727,3** ming so'm (2019-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **2,6** % ga kamaydi) tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqorisi Andijon shahri (8 250,8 ming so'm), Xo'jaobod (6 348,6 ming so'm) va Shahrixon (4 868,7 ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

	Hajm, ming so'm	2019- yilning yanvar- oktabr oylariga nisbatan, % da
Andijon viloyati	3 727,3	97,4
Andijon sh.	8 250,8	98,5
Xonobod sh.	2 888,9	99,6
tumanlar:		
Oltinko'l	2 278,7	98,1
Andijon	2 899,5	105,0
Baliqchi	2 777,2	97,3
Bo'ston	3 051,7	102,1
Buloqboshi	1 906,9	98,6
Jalaquduq	1 581,3	101,6
Izboskan	1 420,1	101,4
Ulug'nor	1 479,2	92,9
Qo'rg'ontepa	3 719,8	97,1
Asaka	3 539,8	88,7
Marhamat	2 498,0	102,5
Shahrixon	4 868,7	93,7
Paxtaobod	2 317,3	98,4
Xo'jaobod	6 348,6	99,5




UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib, foizda



O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



Uyushmagan savdo

Shu jumladan:

Dehqon bozorlari

Chorva bozorlari

Savdo aylanmasi hajmi va ulushi

Uyushmagan savdo

1 046,5 mlrd. so'm, 100 %


Dehqon bozorlari

425,2 mlrd. so'm,
40,6 %

Chorva bozorlari

621,3 mlrd. so'm,
59,4 %

Eng yuqori ulushga ega hududlar, foizda



UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING SAVDO AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

	Jami, mlrd. so'm	2019- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2019- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan, foizda	Chorva (parranda) bozorlari, mlrd. so'm	2019- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan, foizda
Andijon viloyati	1 046,5	76,7	425,2	73,2	621,3	79,2
Andijon sh.	203,8	89,2	131,7	100,6	72,1	74,4
Xonobod sh.	0,9	98,8	0,9	98,8	-	-
tumanlar:						
Oltinko'l	34,3	66,8	15,5	44,8	18,8	111,8
Andijon	8,6	47,6	8,6	47,6	-	-
Baliqchi	53,2	60,5	11,2	46,4	42	64,4
Bo'ston	7,2	42,4	2,9	22,7	4,3	93,6
Buloqboshi	48,5	72,5	13,8	52,4	34,7	85,4
Jalaquduq	34,3	68,9	8	62,9	26,3	71,0
Izboskan	10,1	67,9	4,1	37,9	6	154,9
Ulug'nor	7,0	46,0	3,2	31,3	3,8	72,9
Qo'rg'ontepa	35,2	57,3	12,6	53,0	22,6	60,2
Asaka	157,8	70,2	69,1	69,5	88,7	70,5
Marhamat	75,1	62,8	28,3	48,0	46,8	77,3
Shahrixon	213,9	88,4	65,8	125,5	148,1	78,2
Paxtaobod	87,1	89,5	35,1	82,3	52	95,5
Xo'jaobod	69,5	99,8	14,4	62,9	55,1	118,4

2020-yilning yanvar-oktabr oylarida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida, uy xo'jaligida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida **425,2** mlrd. so'mni, chorva (parranda) bozorlarida **621,3** mlrd. so'mni tashkil etdi.

* Xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YTT)ni qo'shmagan holatda

* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: DEHQON BOZORLARI



2,6
mlrd. so'm

Tuzlamalar



206,1
mlrd. so'm

**Yangi uzilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari**



13,0
mlrd. so'm

**Qurtilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari**
(yong'oq, bodom, pista va
boshqalarni qo'shgan holda)



13,2
mlrd. so'm

Tovuq go'shti



100,3
mlrd. so'm

**Non va non
mahsulotlari**



7,4
mlrd. so'm

Ziravorlar



4,8
mlrd. so'm

Tuxum



63,1
mlrd. so'm

Don mahsulotlari (mosh,
loviya, no'xat, guruch va
boshqalar)



3,0
mlrd. so'm

**Gullar, o'simlik va nihol
ko'chatlari** (manzarali va
qishloq xo'jaligi)



8,9
mlrd. so'm

**Sut va sut
mahsulotlari**




1,6
mlrd. so'm

**Chorva mollari va parrandalar
uchun har xil yem-xashaklar**

2020-yilning yanvar-oktabr oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **425,2** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**206,1** mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI, mlrd. so'm



2020-yilning yanvar-oktabr oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **621,3** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi 492,4 mlrd. so'mni, qo'y va echkilar 119,4 mlrd. so'mni, otlar 4,9 mlrd. so'mni, parrandalar 4,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI


	Jami, mlrd. so'm	2019- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2019- yilning yanvar- oktabr oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2019- yilning yanvar- oktabr oylariga nisbatan, foizda
Andijon viloyati	140,7	97,2	1,7	42,7	139,0	98,8
Andijon sh.	63,6	85,3	1,7	42,7	61,9	87,8
Xonobod sh.	1,6	119,4	-	-	1,6	119,4
tumanlar:						
Oltinko'l	8,8	90,7	-	-	8,8	90,7
Andijon	12,2	128,2	-	-	12,2	128,2
Baliqchi	2,6	105,8	-	-	2,6	105,8
Bo'ston	1,1	128,7	-	-	1,1	128,7
Buloqboshi	2,1	113,1	-	-	2,1	113,1
Jalaquduq	3,3	88,5	-	-	3,3	88,5
Izboskan	2,1	78,1	-	-	2,1	78,1
Ulug'nor	1,4	123,3	-	-	1,4	123,3
Qo'rg'ontepa	4,0	104,2	-	-	4,0	104,2
Asaka	8,6	102,8	-	-	8,6	102,8
Marhamat	4,4	115,5	-	-	4,4	115,5
Shahrixon	17,3	122,6	-	-	17,3	122,6
Paxtaobod	2,6	119,6	-	-	2,6	119,6
Xo'jaobod	5,0	109,3	-	-	5,0	109,3

2020-yilning yanvar-oktabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi **1,2 %** ulushni tashkil etib, **140,7** mlrd. so'mga yetdi va 2019-yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan **2,8 %** ga kamaydi. Bunda jami savdo aylanmasining **98,8 %** ulush kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.




ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib, foizda




Yirik
korxonalar



Mikrofirma va
kichik korxonalar

O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



Jami

Yirik
korxonalar

Mikrofirma
va kichik
korxonalar

Savdo aylanmasi hajmi va ulushi

Ulgurji
savdo

3,3 trln. so'm, 100 %


Yirik
korxonalar

1,1 trln. so'm,
33,0 %

Mikrofirma
va kichik
korxonalar

2,2 trln. so'm, 67,0 %

Eng yuqori ulushga ega hududlar, % da



Viloyat bo'yicha 2020-yilning yanvar-oktabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **3 275,0** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan **42,4** % ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarning savdo tovar aylanmasi **1 079,5** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **40,3** % ga o'sdi), kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi **2 195,5** mlrd. so'mni (**43,5** % ga o'sdi) tashkil etdi.



ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

	Jami, mlrd. so'm	2019- yilning yanvar- oktabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2019- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mlrd. so'm	2019- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan, foizda
Andijon viloyati	3 275,0	142,4	1 079,5	140,3	2 195,5	143,5
Andijon sh.	1 920,5	127,1	762,9	113,7	1 157,6	134,9
Xonobod sh.	20,9	156,9	1,3	-	19,6	147,2
tumanlar:						
Oltinko'l	70,8	103,9	0,2	175,7	70,6	103,8
Andijon	104,2	137,8	0,1	55,2	104,1	138,0
Baliqchi	60,8	117,4	0,3	197,7	60,5	117,1
Bo'ston	6,1	150,2	0,1	121,7	6,0	150,7
Buloqboshi	48,5	2,2 m.	-	-	48,5	2,2 m.
Jalaquduq	24,0	103,8	0,2	194,1	23,8	103,4
Izboskan	70,1	95,2	0,4	123,9	69,7	95,1
Ulug'nor	14,7	59,6	0,1	92,2	14,6	59,5
Qo'rg'ontepa	173,2	129,2	124,5	121,1	48,7	155,9
Asaka	310,6	4,9 m.	142,2	-	168,4	2,7 m.
Marhamat	89,9	13,7 m.	0,2	133,0	89,7	14,0 m.
Shahrixon	307,0	180,0	46,7	3,9 m.	260,3	164,3
Paxtaobod	26,7	112,9	0,2	69,7	26,5	113,3
Xo'jaobod	27,0	78,3	0,1	114,8	26,9	78,2

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar Shahrixon (3,9 m.), Baliqchi (197,7 %) va Jalaquduq (194,1 %) tumanlarida kuzatildi.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va
savdo statistikasi bo'limi**
Tel.: 74-224-82-57